



ARTICLE INFO

Received: 17th December 2022

Accepted: 26th December 2022

Online: 27th December 2022

KEY WORDS

Malaka oshirish jarayoni, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, axborot kompetenligi, kasbiy kompetensiya, ta'lim jarayoni, baxolash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mualliflik metodikasi, maxsus kurs va maxsus platforma.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek,

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

Mavlonov Nurali Sherali o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Maktabgacha ta'lim menejmenti" kafedrasida katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7486667>

ABSTRACT

Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining bosqichlari, zaruriyati va maxsus kurs va platformaning samaradorligini baholash mezonlari va darajalari hamda tajriba-sinov natijalarining tahlillari yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining – "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" Qonuni. 2019-yil 16-dekabr O'RQ-595 sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-maydagi qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz sezib, kuzatib turibdi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat



tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bulgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi.

Ushbu vazifalarni bajarishda ilg'or tajribalardan samarali foydalanish hamda o'quv jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish muhim hisoblanadi. Bunday sharoitlarda maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda tarbiyachilarning roli birinchi o'ringa chiqadi. Bolalar bilan mashg'ulotlarni sifatli tashkil qilish va o'tkazishda tarbiyachilardan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va raqamli platformalardan foydalanish ko'nikmasi talab qilinadi. Shunday ekan tarbiyachilarning axborot kompetentligini rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qoladi. 2020-2022 yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarimi doirasida biz tomondan yaratilgan dasturiy ta'minotlar hamda ishlab chiqilgan o'quv kurslari orqali pedagoglarning axborot kompetentligini rivojlantirishda xizmat qildi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishi natijasida olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan maktabgacha ta'lim sohasida pedagog kadrlarning ta'lim berishda sifat jihatdan ham ta'sir qilishi tajriba-sinov ishlarini olib borishda o'z isbotini topdi.

Biz tomondan Namangan, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlari xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazlarida hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish institutida tarbiyachilarning axborot kompetentligini rivojlantirish maqsadida bir qator pedagogik tajriba sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba sinov jarayonida 669 nafar tarbiyachilar ishtirok etishdi.

Joylarda 2020-2022-yillar davomida pedagogik tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda o'tkazildi va ijobiy natijalarga erishildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini quyidagi bosqichlarga bo'ldik:

Dastlabgi bosqichda nazariy metodologik dastur ishlab chiqildi. Mavzuga oid ilmiy ishlar tahlil qilindi. Joylarda tarbiyachilarni kasbiy kompetentsiyasini va tayanch axborot kompetentsiyasini aniqlash maqsadida testlar olindi va so'rovnomalar o'tkazildi. O'tkazilgan so'rovnoma va testlar matematik taxlil qilindi. Taxlillar natijasi tarbiyachilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi pastligini ko'rsatdi.

So'rovnomalarning tahlil natijasi tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini raqamlashtirish, axborot kompetentligini rivojlantirish uchun tizimli ishlarni amalga oshirish, tarbiyachining lavozim fazifasidan kelib chiqqan holda mavzularni shakllantirish va ushbu mavzularda o'quv kurslarini seminar terininglarni tashkil qilib borish zaruriyatini ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining zamonaviy mehnat vositalari bilan ta'minlanmaganligi ularning kompyuterni bilish darajasini baholashda namoyon bo'ldi. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 77.6% mashg'ulot jarayonida AKTni qo'llashni bilmaydi. Ular tarbiyachilarning o'z kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish va raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasi yetarli darajada emasligidan dalolat beradi.



Umuman olganda, turli hududlardagi so'rov natijalari ba'zi farqlarga ega. Biroq, iqtisodiy jihatdan rivojlangan, kompyuterlar bilan yaxshi jihozlangan hududlarda ham o'z mahoratidan qoniqish hosil qiladigan tarbiyachilar soni kam. Misol uchun, Toshkentda bu ko'rsatkich atigi 16,4% ni tashkil qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari kompyuterlardan foydalanish darajasi. Bu nafaqat ularning faolligi, balki ijodkorligi va mashg'ulot jarayonida AKTdan foydalanishga tayyorlik darajasini ham ko'rsatadi. Kasbiy faoliyatida kompyuter vositalaridan foydalanayotgan tarbiyachilarning so'rovnomalari tahlil qilindi.

E'tibor bering, respondentlar orasida har kuni kompyuter texnikasidan foydalanadigan hech kim yo'q edi. Ushbu natijani salbiy deb hisoblash mumkin, chunki bugungi kunda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari balki barcha soha xodimlari uchun ham kasbiy faoliyatda AKTdan foydalanish zamon talabi bo'lib bormoqda. Shu o'rinda bir iboraga to'xtalib o'tadigan bo'lsak "bugungi kunda axborot olish va berish bizdan uyalmaslikni talab qiladi, havoda qanchadan qancha ma'lumotlar uchib yuribdi. O'qishni bilsang ma'lumotlar bazasi qo'lingda digani" dar haqiqat internit tarmog'i orqali biz xoxlagan savolimizga javob olishimiz mumkun bo'ladi.

Olingan so'rovnomada respondentlarning (82,4%) "men foydalanmayman" savoliga bergan javoblarining ko'pligi tarbiyachilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyor emasligini ko'rsatadi.

Sizning fikringizcha raqamli texnologiyalarga nimalar kiradi? degan

savolga javoblarni tahlil qilish, tarbiyachilarning axborot kompetentligi yetarli darajada emasligidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda o'tkazilgan so'rovnomalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarning ma'lumotlarni topish, saqlash va ular ustida amallar bajarish hamda mashg'ulot jarayonida amaliy dasturiy vositalar va pedagogik dasturlardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarida sezilarli bo'shliqlar aniqlandi. Ba'zi tarbiyachilar kompyuterdan faqtgina turli tadbirlarni o'tkazishda foydalanishar ekan.

Siz raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash uchun sizning axborot kompetentligingizni rivojlantirish zarurmi? va sizning axborot kompetentligingizni rivojlantirish uchun qanday shakilda yordam zarur? Savollariga tarbiyachilar tomonidan quydagicha javoblar olindi:

Tarbiyachilarning 86,3 foizi o'z tayyorgarligini yetarli emas deb hisoblab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida maxsus platformalar yordamida masofaviy malaka oshirish kurslarida ishtirok etish istagini bildirgan.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining aksariyati kompyuter vositalari imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, hatto oliy ta'lim yoki pedagogika kollijarini yaqinda tamomlagan maktabgacha talim tashkilotlari yosh tarbiyachilari ham o'zlarining kasbiy muammolarini hal qilishda kompyuter texnologiyalari imkoniyatlarini yetarli darajada tushunmaydilar.

Ko'rinib turibdiki, malaka oshirish jarayonida tarbiyachilarning axborot kompetentligini rivojlantirish maqsadida axborot texnologiyalarini o'rgatishga yo'nalgan modullarning soatlarini



ko'paytirish yoki qo'shimcha AKTni o'rganitsha yo'naltirilgan qisqa muddatli kurslarni offline tarzda o'qituvchi yordamida yoki online tarzda maxsus platforma yordamida tashkil etish zaruriyatini ko'rishimiz mumkun.

Ikkinchi bosqichda biz "raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot axborot kompetentligini rivojlantirish" mavzusida qisqa muddatli o'quv kurs dasturini ishlab chiqdik. Bugungi kunda tajriba-sinov ishimizni olib borayotgan malaka oshirish markazlarida va maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish institutida o'qitilayotgan modullar mavzulari va soatlari orasidagi farqlarni taxlil qildik. Natijada, biz turli ta'lim muassasalarida dars soatlari hajmida faqat kichik ekanligini va tarbiyachilar uchun berilgan mavzular tarbiyachi lavozim vazifasidan kelib chiqqan holda shakillantirilmaganligiga guvoh bo'ldik.

Ushbu modularga ajratilgan soatlarning eng kam miqdori Sirdaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida (6 soat) va Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida (8 soat) kuzatiladi. O'quv soatlarining eng katta hajmi (10 soat) Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida ajratilgan. Shu bilan birga, o'rganilgan hududlarning hech birida o'quv rejasining mustaqil ta'lim blokida tarbiyachilarning axborot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan modullar mavjud emas.

Bundan xulosa qilish mumkinki, mazkur muassasalarda axborot texnologiyalarini

o'rgatishga yo'naltirilgan modullarga yetarlicha e'tibor berilmaganligi sababli tarbiyachilarni axborot texnologiyalaridan foydalanish kunikmalarini rivojlantirish biroz oqsamoqda.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki tarbiyachilarning o'z faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishlari uchun axborot kompetentligini rivojlantirish maqsadida malaka oshirish kurslarida o'qitilayotgan modullar yetarli hajmda olib borilmayapti.

Biz tarafimizdan takilf qilinayotgan 24 soatga mo'ljallangan qisqa muddatli o'quv kursi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yaratilgan platforma yordamida qisqa muddatli kursni online tashkil qilish tinglovchilarga bir muncha qulayliklar yaratdi. Yani tarbiyachilar axborot kompetentligini rivojlantirish maqsadida 24/7 rejimida platformaga murojat qilishlari mumkun bo'ldi. Yana shuni takidlash joizki tarbiyachilarga qulaylik bo'lgani bu platforma Windows va android o'piratsion tizimlarida ishlaydi.

Ushbu qisqa muddatli kursning mazmuni aktual bo'lib, bugungi kunda tarbiyachilar ish faoliyatida tez tez duch keladigan hamda mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish uchun zarur bo'ladigan pedagogik dasturiy vositalar va amaliy dasturlardan foydalanish algoritmlari keltirib o'tilgan. Albatta, tarbiyachilar kompyuter texnologiyalaridan bevosita foydalanish bilan bog'liq bo'lgan zarur bilim, ko'nikma va malakalarni oladilar. Ushbu qisqa muddatli kurs tarbiyachining axborot kompetentligini rivojlanishiga qaratilgan bo'lib. Tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish uchun xizmat qiladi.




Biz ishlab chiqilgan maxsus kurs dasturini maxsus platformaga joylashtirdik va dars jarayonini platformadan foydalangan holda boshlab oldik.

Bunda tarbiyachilar birinchi navbatda "tarbiyachi.uz" manzili orqali platformaga kirishadi va platformadan foydalanish yo'riqnomasi bilan tanishib chiqishadi. Yo'riqnoma bilan tanishib chiqqan tarbiyachilar maxsus kursni boshlashlari uchun platformadan ro'yxatdan o'tishadi va kursni boshlashdan avval tayancha axborot kompetentligini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan interaktiv topshiriq hamda testlarni topshirgan holda kurs boshlashdan oldingi axborot kompetentligini baholab olishadi. Shundan so'ng maxsus kursni boshlashlari mumkin bo'ldi. Maxsus kursni tugatgan tarbiyachilar chiqish testlari hamda interaktiv topshiriqlarni bajarishadi. Biz kursni boshlashdagi va yakunidagi testlar va interaktiv topshiriqlar natijalarini tahlil qilgan holda tarbiyachilarda axborot kompetentligi rivojlanganlik darajasini aniqlashtirib olishimiz mumkin bo'ladi.

Biz tajriba-sinov ishimizda ishtirok etgan respondentlarni shartli ravishda 339 nafarini tajriba-sinov guruhiga va qolgan 330 nafarini nazorat guruhiga ajratib oldik. Yana shuni takidlab o'tishimiz joizki tajriba-sinov guruhida darslar o'qituvchi yordamida online platformadan foydalangan holda tashkil qilingan bo'lsa nazorat guruhida esa tarbiyachilar mustaqil ravishda platformadan foydalanish orqali dars mashg'ulotlari tashkil qilindi.

Uchinchi bosqichda biz mualliflik metodikasi yordamida platformadan foydalanga holda maxsus kurs dasturini o'qitganimizdan so'ng tarbiyachilarning axborot kompetentligi rivojlanganlik darajasini matematik statistik tahlilini olib bordik. Tarbiyachilarning axborot kompetentligi rivojlanganlik ko'rsatkichlarini, produktiv, reproduktiv va kreativ mezonlar orqali hamda qoniqarli, o'rta va yuqori darajalar asosida baholadik. Tajriba-sinov guruhi va nazorat guruhlari tajriba boshida va oxiridagi o'sishlarni diagrammasini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Respublika bo'yicha test-sinov natijalari diagrammasi.

Mualliflik metodikasi asosida foydalanib o'qitishning yuqori darajada ekanligi



tajriba-sinov ishlarining natijalarida o'z tasdig'ini topdi. Matematik statistik tahlillar a'lo baholar 15,6% dan 36,6 %ga ortganini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, tarbiyachilarning mualliflik metodikasi asosida o'qitish bo'yicha samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldiki, barcha ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi tarbiyachilarning bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1,14 (14%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, malaka oshirish muassasalarida tarbiyachilarning

malaksini oshirish jarayonida axborot kompetentligini rivojlantirishga imkon beradigan uchta asosiy komponentni ajratib ko'rsatish mumkin.

- malaka oshirish jarayonida axborot texnologiyalarini o'rgatishga yo'naltirilgan modullar soatini ko'paytirish va mavzularini mazmunan to'ldirish:

- malaka oshirish jarayonining o'zida qisqa muddatli kurslarni, seminar treninglarni tashkil qilish va mavzularini tarbiyachining lavozim yuriqnomasidan kelib chiqqan holda shakillantirish:

- qisqa muddatli kurslarni online platformalar yordamida tashkil qilish va ushbu platformani tarbiyachining faoliyatida zarur bo'ladigan ma'lumotlar bilan mumtazam ravishda boyitib borish.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining – "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" Qonuni. 2019-yil 16-dekabr O'RQ-595 sonli.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.